

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UZAKOV JAMOLIDDIN ERKINOVICH

**MADANIYAT MUASSASALARINI BOSHQARISHDA
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI
(XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR)**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Uzakov Jamoliddin Erkinovich

Madaniyat muassasalarini boshqarishda transformatsiya jarayonlari
(xorijiy va milliy tajribalar) 3

Узаков Жамолиддин Эркинович

Трансформационные процессы в управлении учреждениями
культуры (зарубежный и национальный опыт) 21

Uzakov Jamoliddin Erkinovich

Transformational Processes in the Management of Cultural Institutions
(Foreign and National Experiences) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UZAKOV JAMOLIDDIN ERKINOVICH

**MADANIYAT MUASSASALARINI BOSHQARISHDA
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI
(XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR)**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/San281 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda «Ziynet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Alemasov Viktor Aleksandrovich falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yo'ldashev Anvar Ergashevich tarix fanlari doktori, professor Inatullaev Baxromjon Boqijonovich san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (49-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 30-iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil 30-iyundagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro'y berayotgan global o'zgarishlar madaniyatga bo'lgan munosabatlarga ham ta'sir etmoqda. Madaniyatga endi faqat ma'naviy-ijodiy institut emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralib BMT, UNESCO va Yevropa Komissiyasi qabul qilgan hujjatlarida madaniy sektorning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga, bandlikni ta'minlash va transmilliy hamkorlikni kengaytirishga ko'rsatilayotgan ta'siri alohida ta'kidlanmoqda. Madaniyat muassasalarini boshqarishda amalga oshirilayotgan transformatsion islohotlarning institutsional, tashkiliy va sotsiomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning madaniy xizmatlar barqarorligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunoslik ilmda ilg'or xorijiy davlatlarda madaniyat muassasalarini boshqarishning milliy dasturlari shakllantirish: AQShda bozor mexanizmlariga tayangan "entrepreneurial model", Buyuk Britaniyada davlat siyosatiga uyg'unlashtirilgan kreativ industriyalar strategiyasi, Janubiy Koreyada raqamli madaniyat eksportiga tayangan "K-Culture" modeliga oid tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilg'or yondashuvlar mustaqil taraqqiyot bosqichida bo'lgan davlatlarda madaniyat muassasalarini boshqarish tizimini yangilash va takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda. Madaniyat muassasalarining boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalar, kreativ industriyalar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash va ularning boshqaruvdagi ahamiyatini ilmiy asos zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda madaniyat muassasalari taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. "Madaniy merosni raqamlashtirish, madaniy xizmatlar tengligini ta'minlash, xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish va ko'p manbali moliyalashtirish tizimiga o'tish bugungi islohotlarning asosiy yo'nalishlari¹ sifatida belgilanib xorijiy davlatlarda madaniyat muassasalarini boshqarishning innovatsion modellarini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari aniqlanmoqda. Madaniyat muassasalarini boshqarishda kechayotgan transformatsiya jarayonlarini tizimli tahlil etish va zamonaviy boshqaruvdagi o'rnini asoslab berish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rne va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rne va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.12.2021-y., 07/21/36/1143-son.

to'g'risida"gi qarorlarida belgilab qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Madaniyatning inson va ijtimoiy taraqqiyotda o'rni, ahamiyati antik davrlardayot falsafiy va ijtimoiy tafakkur markazida bo'lib kelgan. Sharq donishmandlari Konfutsiy, Lao Szi, Budda, shuningdek, yunon faylasuflari Suqrot, Fales, Platon va Aristotel o'z asarlarida inson va jamiyat o'rtasidagi madaniy hamjihatlik, ijtimoiy tartib va boshqaruv tamoyillarini ilgari surishgan. Ularning qarashlarida madaniyat insonni tarbiyalovchi, ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida talqin etiladi.

Muammoning ayrim zamonaviy jihatlarini xorijiy F.Taylor, A.Fayol, P.DiMaggio, R.Florida, J.Xoukings, J.K.Banuelos, A.Rodriguez Miranda, J.M.Valle Melon, A.Zornoza Indart, M.Castellano Roman, R.Angulo Fornos, F.Pinto Puerto, P.Acosta Ibanez, P.Ferreira Lopes, Y.Jung kabi olimlar tadqiq etishgan². Ayniqsa, madaniyat sohasida transformatsion yondashuvning shakllanishida A.To'fflarning "Uchinchi to'lqin" konsepsiyasi, R.Inglehartning modernizatsiya nazariyasi, G.Hofstedening madaniy o'lchovlar modeli va P.Burdye tomonidan ishlab chiqilgan "madaniy kapital" konsepsiyalari madaniyat muassasalarini boshqarish jarayonlarini global kontekstda tushunishga yordam beradi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlarida ham madaniyat tizimi, uning boshqaruv mexanizmlari va transformatsiya jarayonlari masalalari o'rganib kelinadi. Jumladan, V.Alimasov, S.Shermuhamedov, Z.Yusupov, J.Yaxshilikov, A.Ochildiyev, Z.Aliyeva, M.Abdullayev, A.Mo'minov, S.Norqulov, A.Qosimov, N.Ismoilova, Sh.Xolboyev, E.Bobomurodov, M.Qodirov, A.Umarov, M.Bekmurodov, A.Mavrulov, M.Mavrulova, S.To'ychiyeva, A.Haydarov, B.Sayfullayev, U.Qoraboyev, M.Umarov, G'.Soatov, F.Ahmedov, J.Mamatqosimov, M.Xolmo'minov, Sh.Alimova, S.T.Ikramov³ singari tadqiqotchilarning ilmiy ishlari

² Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. – New York: Harper & Brothers Publishers, 1911. – 144 p.; Fayol H. Administration industrielle et generale. – Paris: Dunod, 1916. – 224 p.; DiMaggio P.J., & Powell W. W. The iron cage revisited: Institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields. American Sociological Review, 48(2), 1983. – pp. 147-160.; Florida R. The Creative Class and Economic Development. Economic Development Quarterly, 28(3), 2014. – pp. 196-205.; Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. – London: Penguin Books, 2001. – 288 p.; Banuelos J. K., Rodriguez Miranda A., Valle Melon J. M., Zornoza Indart A., Castellano Roman M., Angulo Fornos R., Pinto Puerto F., Acosta Ibanez P., Ferreira Lopes P. The role of information management for the sustainable conservation of cultural heritage. Sustainability, 13(8), 2021. – 4325 p.; Jung Y. (Ed.). The Oxford handbook of arts and cultural management. Oxford University Press, 2022. – pp. 371-392.

³ Alimasov V. Madaniyat falsafasi. – Toshkent, Donishman-ziyo nashriyoti, 2023. – 138 b.; Alimasov V. Madaniyat muassasalarida iqtisodiy boshqarish usullari. – Toshkent, Fan qo'lyozmalar instituti, 1997. – 54 b.; Shermuxammedov S., Yusupov Z. O'zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmilallik, – Namangan, 2020. – 160 b.; Yaxshilikov J. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, Fan, 2017. – 123 b.; Shermuxammedov S., Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona, 2000. – 42 b.; Aliyeva Z. T. Boshqaruv madaniyatining falsafiy asoslari. – Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2024. – 210 b.; Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari, – Farg'ona, 1998. – 38 b.; Mo'minov A. Milliy siyosat va madaniy sohadagi islohotlar. – Toshkent, Akademiya, 2010. – 66 b.;

madaniyat muassasalarida kechayotgan institutsional o'zgarishlar, innovatsion boshqaruv prinsiplari, madaniy siyosatning rivojlanish bosqichlari hamda sotsiokultural transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil etishga qaratilgan. Ularning ilmiy qarashlari O'zbekiston madaniyat siyosatida transformatsion boshqaruv modelining shakllanishida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda kreativ industriyalar, madaniyatda raqamli transformatsiya va menejment sohasida yangi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi madaniyat muassasalarini boshqarishdagi transformatsion jarayonlarning nazariy va amaliy asoslariga ko'ra xorijiy ilg'or tajribalarni milliy boshqaruv modeli bilan qiyosiy baholash hamda O'zbekiston madaniyat tizimiga joriy qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

madaniyat muassasalarini boshqarishda kechayotgan transformatsiya jarayonlarini tizimli tahlil etish va zamonaviy boshqaruvdagi o'rnini asoslab berish;

Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2015. – 168 b.; Qosimov A., Ismoilova N., Xolboyev Sh. Madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion mexanizmlari. O'zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, №4. 2022. – 45-63 b.; Bobomuradov E. O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari. "Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilma-lari transformatsiyasi" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – 56-62 b.; Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Toshkent, O'zbekiston milliy faylasuflar jamiyati, 1999. – 64 b.; Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – 468 b.; Umarov A. va boshq. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. – Toshkent, Donishmand ziyosi, 2023. – 184 b.; Bekmurodov M., Umarov A. va boshqalar. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubi-yati, Darslik, – Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2016. – 28 b.; Umarov A.A. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. – Toshkent, Yangi asr avlodi nashriyoti, 2001. – 21 b. (hammuallif); Umarov A. Mutolaa madaniyati. O'quv qo'llanma. – Namangan, Namangan nashriyoti, 2014. – 28 b. (hammuallif); Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2008. – 22 b.; Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. O'quv qo'llanma, – Toshkent, Donishmand ziyosi nashriyoti, 2023. – 54 b.; To'ychiyeva S. "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish". Darslik, – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 264 b.; To'ychiyeva S. "Boshqaruv texnologiyalari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 148 b.; Haydarov A. "Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari". O'quv qo'llanma, – Toshkent, Kamalak nashriyoti, 2019. – 232 b.; Haydarov A. "Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish". O'quv qo'llanma, – Toshkent, Kamalak nashriyoti, 2019. – 198 b.; Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti, 2014. – 152 b.; Qoraboyev U. "O'zbek xalqi bayramlari", – Toshkent, Sharq nashriyoti, 2002. – 224 b.; Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent, Yangi asr avlodi nashriyoti, 2009. – 324 b.; Soatov G., Xalq bayramlarining etnofolklor xususiyatlari. – Namangan, 1992. – 62 b.; Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent, Aloqachi nashriyoti, 2008. – 424 b.; Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti, 2009. – 208 b.; Xolmo'minov M. "Milliy madaniyat – Renessans poydevori". Monografiya. – Toshkent, Metodist nashriyoti, 2023. – 154 b.; Alimova Sh. "Madaniy-ma'rifiy faoliyat asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – 48 bet.; Xolmo'minov M. "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini boshqarish". Darslik, – Toshkent, Donishmand ziyosi nashriyoti, 2025. – 450 b.; Xolmo'minov M. Madaniyat va san'at muassasalari xodimlarining malakasini oshirish dasturi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, IJOD-PRINT nashriyoti, 2023. – 85 b.; Ikramov S.T., Xolmo'minov M.Z. San'at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, IJOD-PRINT nashriyoti, 2023. – 250 b.

xorijiy davlatlarda madaniyat muassasalarini boshqarishning innovatsion modellarini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

madaniyat muassasalarini boshqarishda amalga oshirilayotgan transformatsion islohotlarning institutsional, tashkiliy va sotsiomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning madaniy xizmatlar barqarorligiga ta'sirini aniqlash;

madaniyat muassasalarining boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalar, kreativ industriyalar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash va ularning boshqaruvdagi ahamiyatini ilmiy asosda aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonning madaniyat muassasalarini boshqarishda amalga oshirilayotgan transformatsion o'zgarishlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini madaniyat muassasalarini boshqarishda transformatsion yondashuvlar va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining amaliy tatbiqi, shuningdek, milliy va xorijiy tajriba asosida ushbu muassasalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda falsafaning kompleks yondashish, ratsionallik, obyektivlik, tizimli funksional yondashuv, sintez va analiz, ommaviy so'rovnoma, ekspress savol-javob, intervyu, ekspertlar savol-javobi, kontent analiz, sotsiodinamik tahlil, modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashtirish madaniyat muassasalarini boshqarishga umuminsoniy nuqtai nazardan yondashishga undab ulardagi transformatsiya jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida ham yondashishga undayotgani asoslangan;

madaniyat muassasalarini boshqarishning ilg'or xorijiy davlatlardagi modellari baholanib, ularga kommersializatsiya, davlat-xususiy sheriklik, xo'jalik hisobida ishlash, munisipal va o'zini-o'zi boshqarish, regulyasiya, aholi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqish kabilar xosligi aniqlangan;

ilg'or xorijiy tajribalar asosan iqtisodiy boshqarish, xo'jalik hisobida ishlash prinsipiga qurilgani ochib berilib, madaniyat menejmenti va madaniyat marketingi talablariga muvofiq boshqarish qaror topgani, ularni milliy tajribalarga tatbiq etishning samarador imkoniyatlari aniqlangan;

Yangi O'zbekistonda madaniyat muassasalari davlat, nodavlat, davlat-xususiy sheriklik, xo'jalik hisobi, ijara usullari orqali boshqarilishi, ulardagi milliy xususiyatlar hamda transformatsiya jarayonlari ochib berilib, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq kreativ boshqarish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan transformatsion boshqaruv tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat muassasalari faoliyatiga amaliy tarzda tatbiq etilib, ularning boshqaruv jarayonida innovatsion menejment mexanizmlari, raqamli xizmatlar tizimi va auditoriya bilan interaktiv hamkorlik uslublari yo'lga qo'yilgan;

madaniyat sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan boshqaruv modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy

asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilib, ushbu model O'zbekiston Davlat filarmoniyasi va qator ijodiy tashkilotlar faoliyatida amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan;

taklif etilgan madaniyat muassasalarini innovatsion boshqarish modeli "O'zbekiston tarixi" telekanali va "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi orqali ommalashtirilib, kreativ menejment va marketing bo'yicha ilg'or yondashuvlarni targ'ib etishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy manbalar, ishonchli dalillarga tayanilganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatida bo'lgan maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda madaniyat muassasalarini boshqarish jarayonida kechayotgan transformatsion o'zgarishlarning nazariy asoslari tizimli tarzda tahlil qilinib, ularning innovatsion, institutsional hamda sotsiokultural jihatlari ilmiy nuqtayi nazardan chuqur yoritib berilgan. Xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy o'rganilishi orqali madaniyat tizimining boshqaruv paradigmasi, raqamli transformatsiya va kreativ iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liqlikda ilmiy konsept sifatida shakllantirildi. Tadqiqot natijalari madaniyat menejmenti nazariyasini yanada boyitib, madaniyatni ijtimoiy hamda iqtisodiy tizimning muhim strategik tarmog'i sifatida tadqiq etish uchun yangi ilmiy-metodologik yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning nazariy natijalarini madaniyat muassasalarining boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatidadir. Ishda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar madaniyat muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu tariqa, tadqiqot natijalari O'zbekistonning madaniyat siyosatini ilmiy asoslangan, transformatsion va innovatsion yo'nalishda takomillashtirishga ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Madaniyat muassasalarini boshqarishda transformatsion jarayonlarning tahlili asosida olingan ilmiy natijalar asosida:

globallashuv madaniyat muassasalarini boshqarishga umuminsoniy nuqtai nazardan yondashishga undab ulardagi transformatsiya jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida ham yondashishga undayotgani asoslangan xulosa va takliflardan respublikamizdagi mavjud madaniyat va san'at muassasalarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 9-oktyabrdagi 01-11-17-3408-son ma'lumotnomasi). Natijada, madaniyat muassasalari bo'lgan ta'lim muassasalari, muzeylar, teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, konsert-tomosha muassasalari, maqom markazlarida boshqarishning innovatsion metodlari qo'llanildi va sohada boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

madaniyat muassasalarini boshqarishning ilg'or xorijiy davlatlardagi modellari o'rganilib, ularga kommersializatsiya, davlat-xususiy sheriklik, xo'jalik hisobida ishlash, munisipal va o'zini-o'zi boshqarish, regulatsiya, aholi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqish kabilar xosligi aniqlangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining boshqaruv faoliyatiga doir hujjatlarni takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2026-yil 29-yanvardagi 04-05/368-son ma'lumotnomasi). Natijada, Madaniy meros agentligining boshqaruv faoliyati natijadorligini oshirish, tizimdagi amaliy loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizm yo'lga qo'yilmoqda;

ilg'or xorijiy tajribalar asosan iqtisodiy boshqarish, xo'jalik hisobida ishlash prinsipiga qurilgani ochib berilib, madaniyat menejmenti va madaniyat marketingi talablariga muvofiq boshqarish qaror topgani, ularni milliy tajribalarga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini boshqarishda foydalanilgan (O'zbekiston Badiiy akademiyasining 2026-yil 28-yanvardagi 02-06/84-186-son ma'lumotnomasi). Natijada, xorijiy va mahalliy tajribalar tahliliga asoslangan holda san'at va madaniy merosni namoyish etish, ko'rgazma va ijodiy loyihalarni hududlararo hamda xalqaro miqyosda tashkil etishni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvi shakllantirilib, ushbu yondashuv madaniy jarayonlarning tashkiliy va ijodiy samaradorligini oshirish imkonini bermoqda;

Yangi O'zbekistonda madaniyat muassasalari davlat, nodavlat, davlat-xususiy sheriklik, xo'jalik hisobi, ijara usullari orqali boshqarilishi, ulardagi milliy xususiyatlar hamda transformatsiya jarayonlari ochib berilgan, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq kreativ boshqarish usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilgan xulosa va tavsiyalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqimot" ko'rsatuvida amaliy manba sifatida foydalanilgan (O'zMTK "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 29-apreldagi 01-30/279-son ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, xususan madaniyat muassasalarida kreativ menejment va marketingning qamrovi hamda ahamiyati, ularning funksional xususiyatlari va makon-zamon kontekstidagi o'ziga xosliklarini ochib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilingani. Dissertatsiya bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatitsiyasi, nashr etilgan ishlari, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Disertatsiyaning birinchi bobi **“Madaniyat muassasalarini boshqarishning nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda madaniyat sohasini boshqarishning nazariy asoslari yoritilgan. Madaniyat menejmenti va institutsional yondashuv tushunchalari izohlangan hamda madaniyat jamiyat hayotida nafaqat ma'naviy soha, balki ijtimoiy rivojlanish va milliy o'zlikni mustahkamlovchi muhim tizim sifatida talqin qilingan. Shuningdek, madaniyat institutlarining turlari va ularning jamiyatdagi vazifalari umumiy tarzda bayon qilingan.

So'nggi o'n yilliklarda madaniyat sohasi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlarning ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda. Shu bois madaniyatni boshqarish faqat ijodiy jarayon emas, balki institutsional tizim sifatida ham tahlil etilishi zarur. Institutsional yondashuv bu, madaniyatni ijtimoiy institutlar tizimi sifatida tahlil qilishga asoslangan ilmiy-uslubiy yondashuvdir.

Hozirgi kunda global jarayonlar, xususan, global o'zgarishlari va raqamli transformatsiya, madaniyat institutlarini yangi strategik vazifalar va muammolar bilan yuzma-yuz qo'ymoqda. Masalan, milliy muzeylar, teatrlar va kutubxonalar endi faqat milliy madaniyatni saqlash bilan cheklanmay, global auditoriyaga erishish, raqamli resurslarni boshqarish va ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash kabi missiyalarni bajarishi kerak. Shu sababli madaniyat boshqaruvini institutsional nuqtai nazardan o'rganish bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun strategik ahamiyatga ega muammodir.

Madaniyat sohasida boshqaruv tizimining samaradorligi va barqarorligi ko'p jihatdan jamiyatda mavjud bo'lgan ilmiy muassasalar, ularning o'zaro aloqasi hamda ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unligiga bog'liqdir. Hozirgi global o'zgarishlar va raqamli transformatsiya sharoitida madaniyat nafaqat milliy o'zlikning ifodasi, balki ijtimoiy boshqaruvning muhim mexanizmiga aylanmogda. Shu sababli madaniyat sohasidagi boshqaruvni institutsional nazariya asosida o'rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda strategik ahamiyat kasb etmogda. Madaniyat sohasidagi boshqaruv tizimi samaradorligi va barqarorligi ko'p jihatdan jamiyatdagi institutsional tuzilmalar, ularning o'zaro aloqasi hamda ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unligiga bog'liqdir.

Madaniyat menejmenti tizimi jamiyatda madaniy jarayonlarni boshqarishga qaratilgan institutsional, tashkiliy va ijtimoiy mexanizmlar majmuasidir. Ushbu tizim madaniyatni faqat estetik yoki ma'naviy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy rivojlanish, innovatsion salohiyat va ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi strategik resurs sifatida talqin etadi.

Madaniyat menejmenti zamonaviy ijtimoiy fanlarga nisbatan yangi yo'nalish bo'lsada, u tez rivojlanayotgan ilmiy soha sifatida tan olinadi⁴. Ushbu yo'nalishning

⁴ Kovalenko N. Introduction to Cultural Management: Concepts and Perspectives. – Kyiv: Academic Press, 2022. – pp. 27-32.

o'ziga xosligi shundaki, u boshqaruv nazariyasi, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va iqtisodiyot elementlarini kompleks tarzda birlashtiradi⁵.

Madaniyat menejmenti madaniy merosni integratsiyalash va yangilash jarayonida tarixiy va zamonaviy madaniyat elementlarini uyg'unlashtirib, ularni zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda qo'llash imkonini beradi⁶.

Shuningdek, ko'p tadqiqotlarda madaniyat menejmenti ijtimoiy-madaniy tizimlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan strategik jarayon sifatida talqin qiladi. Bu jarayon nafaqat tashkilot ichidagi boshqaruvni, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muhitini ham hisobga oladi.

Raqamli texnologiyalar madaniyat menejmentiga yangi imkoniyatlar yaratadi: raqamli arxivlar va kutubxonalar orqali tarixiy va zamonaviy madaniy merosni global auditoriyaga yetkazish, Onlayn teatr, kino va musiqa platformalari orqali ijodiy mahsulotlarni milliy chegaralardan tashqariga chiqarish, onlayn va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali madaniy tajribalarni interaktiv qilish. Bu jarayon madaniy kapitalni raqamli aylanmaga kiritish va global maydonda tanitish imkonini beradi.

Bobomurodov, Mo'minov, Haydarov va Alimasovning qarashlariga ko'ra, madaniyat boshqaruv nazariyasi bu murakkab, tizimli ijtimoiy jarayon bo'lib, u boshqaruv funksiyalarini madaniy kontekstga moslashtirish, strategik rejalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy-ma'naviy qiymatlarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv madaniyat muassasalari samaradorligini oshirish va ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy adabiyotlarda uchta asosiy yo'nalish ajratilgan: birinchidan, madaniyat tashkilotini ochiq tizim sifatida ko'rish, ya'ni u ichki strukturasi bilan birga tashqi madaniy, iqtisodiy va texnologik muhitga moslashishi lozim. Ikkinchidan, boshqaruvning transformatsion yo'nalishi raqamli texnologiyalar, ijodiy platformalar va auditoriya bilan interaktiv aloqalar orqali yangi boshqaruv shakllarini joriy qilish. Uchinchi jihat boshqaruv madaniyati: rahbarning madaniy va etika jihatlari, xodimlarning madaniy-motivatsion salohiyati boshqaruv samaradorligini belgilaydi.

Tahlil etilgan adabiyotlardan ko'rinadiki, madaniyat muassasalarini boshqarish masalasida bir qator ilmiy bo'shliqlar mavjud. Xususan, xorijiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya va kreativ iqtisodiyot masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston sharoitida amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Milliy tadqiqotlarda esa asosan tashkiliy-huquqiy asoslar, boshqaruv madaniyati va ma'naviy qadriyatlar masalalari ko'rib chiqilgan, biroq empirik tahlil, innovatsion boshqaruv mexanizmlari va xalqaro integratsiya jarayonlari hali to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Madaniyat muassasalarini boshqarishda innovatsiya: xorijiy tajribalar”** deb nomlangan. Ushbu bobda globallashtirish va innovatsion rivojlanish sharoitida madaniyat muassasalarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Bugungi kunda madaniyat sohasi nafaqat milliy ma'naviy qadriyatlarni saqlash vositasi, balki davlatning xalqaro nufuzi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois madaniyat

⁵ Throsby D. The Economics of Cultural Policy. Cambridge University Press, 2010. – pp. 87-89.

⁶ Smith A. Beyond a Boundary (of a „Field of Cultural Production“) Theory, Culture & Society, 23(4), 2006. – pp. 95-112.

muassasalarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida transformatsiya qilish, innovatsion mexanizmlarni joriy etish va xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Madaniyat muassasalarida boshqaruv tizimi sohaning ijtimoiy-ma'naviy vazifalaridan kelib chiqib shakllanadi. Ushbu boshqaruv jarayoni nafaqat tashkiliy-texnik masalalarni hal etishga, balki ijodiy faoliyatni muvofiqlashtirish, jamoatchilik ehtiyojlarini inobatga olish hamda madaniy xizmatlar sifatini oshirishga qaratiladi. Shu bois boshqaruv belgilari madaniyat muassasalari faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniyat muassasalarida boshqaruv jarayoni o'zaro uzviy bog'langan bir necha belgi orqali amalga oshiriladi. Madaniyat muassasalarida boshqaruv to'rtta asosiy belgiga bo'linadi. Ushbu belgilar boshqaruv jarayonining mantiqiy ketma-ketligini va mazmuniy yaxlitligini ifodalaydi:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- regulyatsiya;
- uyushtirish.

Ushbu belgilar boshqaruv faoliyatining mantiqiy ketma-ketligini belgilab beradi va har bir bosqich keyingisining samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Xususan, rejalashtirish maqsadlarni aniqlashtirsa, tashkil etish ularni amaliy faoliyatga tatbiq etishni ta'minlaydi, regulyatsiya jarayonlarni muvozanatda ushlab turadi, uyushtirish esa barcha ishtirokchilar faoliyatini yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

XXI asrda madaniyat sohasi o'zining an'anaviy estetik va ma'naviy funksiyalaridan tashqari, iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Madaniyat endilikda nafaqat san'at orqali ijtimoiy-estetik ta'sir ko'rsatadi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, turizmni rivojlantirish va xizmatlar sohasining kengayishiga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda.

Tizimli nazariya asoschilari L.Bertalanfi izchil ta'kidlaganidek, madaniyat o'zaro bog'langan elementlar majmuasi bo'lib, undagi o'zgarishlar ichki manfaatlar va tashqi ijtimoiy talablar bilan belgilanadi⁷. Institutsional yondashuv madaniyatni jamiyatdagi me'yorlar, qadriyatlar, siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, shuningdek, davlat siyosati ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy institut sifatida talqin etadi.

Xorijiy boshqaruv modellarini o'rganish madaniyat muassasalarida samarali boshqaruv mexanizmlarini aniqlash, ijodiy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish imkonini beradi.

AQSh va Angliyada madaniyat muassasalarini boshqarish modellari jamiyatning demokratik tamoyillari, fuqarolik faolligi va bozor mexanizmlarining uyg'unligi asosida shakllangan.

Har ikkala mamlakatda madaniyat sohasini boshqarish markazlashgan buyruqbozlikka emas, balki strategik yo'naltirish, moliyaviy rag'batlantirish va mustaqil institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga tayanadi. Ushbu yondashuv

⁷ Von Bertalanffy L. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968. – 289 p.

madaniyat muassasalarining ijodiy erkinligini saqlagan holda, ularning jamiyat ehtiyojlariga mos va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Germaniyada madaniyat muassasalarini boshqarish modeli tarixiy jihatdan roman-german (kontinental) huquqiy an'analariga tayangan holda shakllangan bo'lib, unda davlatning madaniyat sohasidagi mas'uliyati yuqori darajada saqlanib qolgan. Mazkur model madaniyatni jamiyatning umumiy boyligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etadi. Shu sababli madaniyat muassasalari faoliyatini boshqarishda huquqiy me'yorlar, institutsional barqarorlik va uzoq muddatli strategik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, global innovatsion jarayonlar madaniyat muassasalarining institutsional tuzilmasi, boshqaruv paradigmasi hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini modernizatsiya qilishga, ularni zamonaviy boshqaruv standartlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Madaniyat sohasi endilikda inert, faqat an'analar bilan bog'liq tizim emas, balki zamonaviy raqamli muhitga moslashgan, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydigan faol institutga aylangan.

Madaniyat muassasalarini boshqarish modellarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar tajribasida davlat yetakchiligi, muassasaviy mustaqillik va jamoatchilik ishtiroki turli nisbatlarda uyg'unlashtirilgan. Ushbu modellar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilganda, madaniyat sohasida davlatning strategik roli saqlanib qolgan holda, boshqaruv jarayonida moslashuvchanlik va samaradorlikni oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Xorijiy tajriba milliy qadriyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda tanlab joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

AQSh va Angliya modellaridan O'zbekiston uchun eng muhim tajriba sifatida loyiha asosida boshqarish, grantlar va homiylik mexanizmlaridan foydalanish, shuningdek jamoatchilik bilan faol hamkorlik qilishni ko'rsatish mumkin. Bu yondashuv madaniyat muassasalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va madaniy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Germaniya, Fransiya va Yaponiya modellarida kuzatiladigan professional boshqaruv, aniq huquqiy tartibga solish va uzoq muddatli rejalashtirish tajribasi milliy boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Sharq, Xitoy va Rossiya modellarida namoyon bo'ladigan davlat yetakchiligi, barqaror moliyalashtirish va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari O'zbekiston sharoitida ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu tajribalarni demokratizm tamoyillari, ochiqlik va jamoatchilik ishtiroki bilan uyg'unlashtirish madaniyat muassasalarini boshqarishning milliy modelini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Natijada O'zbekiston madaniyat muassasalarini boshqarish tizimi xorijiy ilg'or tajribalar va milliy an'analarning uyg'unlashgan, samarali va barqaror modeliga aylanishi mumkin.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish madaniyat tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning eng muhim yo'lidir. Chunki har bir davlatning tarixiy xotirasi, ijtimoiy-madaniy muhiti, iqtisodiy salohiyati va boshqaruv tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani uchun, xalqaro tajribalarni bevosita ko'chirib tatbiq etish ko'p hollarda kutilgan samarani bermaydi.

Shu bois madaniyat muassasalarini transformatsion boshqarishda jahon amaliyotini to'liq takrorlash emas, balki uni mahalliy sharoit, milliy qadriyatlar va

ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv transformatsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlaydi hamda global innovatsiyalarni milliy rivojlanish strategiyasiga moslashtirish imkonini yaratadi. Shu bois, milliy kontekstga moslashtirish tamoyillarini ilmiy asoslash O'zbekiston madaniyat siyosatining istiqboldagi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O'zbekistonda madaniyat muassasalarini boshqarishning milliy xususiyatlari va istiqbollari”** deb nomlangan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot falsafasi madaniyatni jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qayta talqin qilib, uni davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ushbu yondashuv “inson qadri” tamoyiliga tayanib, madaniyatni faqat ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida emas, balki milliy barqarorlikni mustahkamlovchi, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlovchi hamda xalqaro maydondagi nufuzni yuksaltiruvchi tizim sifatida moddiy, tashkiliy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi⁸.

Mazkur siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy madaniy merosni saqlab qolish va uni zamonaviy rivojlanish talablariga mos shaklda yangilashdan iboratdir. Raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida madaniy merosni muhofaza qilish tizimi tubdan yangilanib, arxiv hujjatlari, muzey fondlari, qo'lyozmalar hamda nodir san'at namunalari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar milliy xotiraning global madaniy makonga kirib borishiga zamin yaratib, O'zbekiston madaniy boyliklarining xalqaro miqyosda tanilishi va keng targ'ib etilishiga imkon bermoqda.

Yangi O'zbekiston madaniy siyosatining bosh maqsadlaridan yana biri madaniy tenglik va inklyuziya tamoyillarini hayotga joriy etishdir. Hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, ya'ni chekka tuman va qishloq joylarda ham madaniyat muassasalari va xizmatlaridan teng hamda samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali madaniyatning ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu maqsadda ko'plab teatr, kutubxona va madaniyat markazlari modernizatsiya qilinmoqda, mobil madaniy xizmatlar yo'lga qo'yilmoqda.

Bularning barchasi madaniyatni ijtimoiy barqarorlikning muhim elementi sifatida mustahkamlaydi.

Madaniyat muassasalarini boshqarish tizimida demokratizm tamoyillari muassasa faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligini, ochiqqligini va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Madaniyat sohasi bevosita inson, ijod va jamoatchilik bilan bog'liq bo'lgani sababli, bu yerda boshqaruv faqat ma'muriy buyruqlar asosida emas, balki hamkorlik, kelishuv va o'zaro hurmat tamoyillariga tayanishi lozim. Demokratik boshqaruv muassasa rahbariyati, xodimlar va jamoatchilik o'rtasida sog'lom muloqot muhitini shakllantirib, qabul qilinayotgan qarorlarning hayotiyligini oshiradi.

Madaniyat muassasalarini boshqarishda qabul qilinadigan qarorlar nafaqat iqtisodiy, tashkiliy va texnologik omillarni, balki mahalliy madaniy muhitning o'ziga xos psixologik hamda sotsiokultural xususiyatlarini ham hisobga olgan holda, moslik

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

va uyg'unlik tamoyillariga asoslanishi zarur. Aks holda, eng zamonaviy innovatsiyalar ham jamoatchilik tomonidan rad etilishi mumkin. Shu sababli boshqaruv organlari har bir yangilikni joriy etishda milliy an'analariga hurmat va mahalliy auditoriya xulq-atvorini chuqur tahlil qilishni zarur deb biladi. Madaniyat muassasalarida transformatsiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ma'naviy legitimlikka bog'liq. Qadriyatlardan uzilgan islohotlar vaqtinchalik va beqaror bo'lishi mumkin, qadriyatlar bilan uyg'unlashgan islohotlar esa jamiyat tomonidan qabul qilinadi, qo'llab-quvvatlanadi va uzoq muddatli barqaror natija beradi. Shu jihatdan qadriyatlar boshqaruv samaradorligining ichki ijtimoiy kafolati hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy innovatsion jarayonlar bilan ularni uyg'unlashtirish, ya'ni an'ana va yangilanish o'rtasida muvozanatli integratsiyani ta'minlashdan iboratdir. Bu esa transformatsiya jarayonida an'anaviy madaniy xotirani asrab qolgan holda, uni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashtirishni talab etadi. Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan tarixiy tajribasi, madaniy identiteti va ijtimoiy birligini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy tizimni tashkil etsa, innovatsion rivojlanish esa global raqobat sharoitida yangicha tafakkur, ilg'or texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni joriy etishni nazarda tutadi. Ularning uyg'unligi tarixiy merosning zamonaviy taraqqiyotiga to'siq emas, aksincha uning intellektual zaminiga aylanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda madaniyat muassasalarini boshqarishda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan:

muzeylar fondi 3D rekonstruksiya va virtual ekskursiyalar asosida raqamlashtirilmoqda;

teatrlarda onlayn sahna ko'rsatuvlari va elektron chipta tizimi joriy etilgan;

kutubxonalarda elektron resurs markazlari faoliyat yuritmoqda;

